Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyat markazlari va Toshkent shaharida Matbuot uylarining holat tanqidiy o‘rganib chiqilib, yangi binolar barpo etish yuzasidan zarur choralar ko‘riladi” [13].

Xulosa va takliflar. Qoraqalpog‘istonda ijtimoiy fikr va zamonaviy mediamarkazlar faoliyati, tajribalari va muammolarning tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, hududdagi media sohasi jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, ijtimoiy fikrning erkin shakllanishi va targ‘ib qilinishida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Zamonaviy media markazlar aholi ovozini eshitish, jamoatchilik fikrini ifoda etish va demokratik qadriyatlarni qaror toptirishda muhim rol o‘ynashi kerak bo‘lsa-da, amalda axborot manbalarining cheklanganligi, texnik va kadr salohiyatining yetarli emasligi, ayrim hollarda senzura va avtotsenzura mavjudligi ijtimoiy fikrning to‘liq va erkin shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ijtimoiy fikrning tarbiyasi – bu jamiyatning ongli, tanqidiy va mas’uliyatli shaxslarini voyaga yetkazishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Agar media markazlar erkin, mas’uliyatli va xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi subyektlar sifatida faoliyat yuritsa, ular ijtimoiy ongni shakllantirishda, millatlararo totuvlik, madaniy barqarorlik va fuqarolik faolligini rivojlantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu bois Qoraqalpog‘istonda zamonaviy media markazlarni rivojlantirish, axborot erkinligini ta’minlash va jamoatchilik fikrining ochiq tarzda shakllanishi uchun institutsional, texnologik va axloqiy sharoitlarni yaratish – barqaror ijtimoiy rivojlanishning muhim falsafiy mezoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Qoraqalpog‘iston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi. Mintaqaviy matbuot tahlili va tarqatish holati. Nukus, 2023.

(2). “Jamiyat” (Общество) ijtimoiy-siyosiy gazetasi. 2012-yil, 17-yanvar soni.

(3). Berdimuratova G. Qoraqalpog‘istonda ommaviy axborot vositalari rivoji: holat va istiqbollar. “Matbuot va kommunikatsiya”, Toshkent, 2023, 4-son (2), 58–65-betlar.

(4). Шопенгауэр А. Эристика, или искусство побеждат в спорах. М., FV Editions, 2017; Диалектика в споре. М., “Ифран”, 1992.

(5). To‘laganov D. Internet va axborot iste’moli: mintaqaviy sotsiologik tahlil. “O‘zbekiston ijtimoiy fikr”, Toshkent, 2023, 7-son (1), 42–49-betlar.

(6). https://daryo.uz/2024/08/21/acwa-power-commences-construction-of-200-mw-wind-power-plant-and-100-mw-bess-in-karakalpakstan

(7). Atamuratov T. Yangi O‘zbekistonda Mo‘ynoq yangi hayotga qaytdi. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 15-mart.

(8). Inson qadri tamoyili asosida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha katta marralar belgilandi. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 25-fevral.

(9). Inson qadri tamoyili asosida Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha katta marralar belgilandi. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 25-fevral.

(10). Abdurahmonov I. Orolbo‘yi: ekologik inqiroz qanday bartaraf etiladi? “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 1-mart.

(11). Annaqlicheva G. Qadim Qoraqalpoq zamini yasharmoqda. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 26-fevral.

(12). Dunyo jamoatchiligi e’tibori va e’tirofi. “Hurriyat”, 2022, 17-avgust.

(13). Mirziyoyev Sh. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. “Yangi O‘zbekiston”, 2022, 28-iyun.

Biyimbetov Jaksilik Kilishbayevich (Qoraqalpoq davlat universiteti doktorantura bo‘limi boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent),

Abdurashitova Gulbarno Ahmedqulovna (Qoraqalpoq davlat universiteti falsafa ta’lim yo‘nalishi talabasi)

AXBOROT ASRIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axborot asri sharoitida axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi insonning dunyoqarashi hamda axloqiy qarashlariga va qadriyatlarga ta’siri chuqur ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq qilingan. Shuningdek maqolada axloqiy kategoriyalar va qadriyatlarning raqamli muhitdagi yangi mazmuni ochib berilib, axborot madaniyatini oshirish va yoshlarni ma’naviy tarbiyalash zarurligi ilmiy jihatdan asoslanagan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, texnologiya, dunyoqarash, murakkab axloqiy muammolar, transformatsiya, axborot almashinuvi, axloqiy qadriyatlar, axborot madaniyati, etika, globallashuv.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ИНФОРМАЦИОННУЮ ЭПОХУ

Аннотация. *В данной статье проводится философский анализ изменений моральных ценностей в информационную эпоху. Глубоко изучается с социально-философской точки зрения влияние развития информационных технологий и социальных сетей на мировоззрение, моральные взгляды и ценности человека. В статье также раскрывается новое значение моральных категорий и ценностей в цифровой среде и научно обосновывается необходимость совершенствования информационной культуры и духовного воспитания молодежи.*

Ключевые слова*: общество, технологии, мировоззрение, сложные этические вопросы, трансформация, обмен информацией, этические ценности, информационная культура, этика, глобализация.*

TRANSFORMATION OF MORAL VALUES IN THE INFORMATION AGE

Annotation. *This article philosophically analyzes the changes in moral values in the information age. The impact of the development of information technologies and social networks on human worldview, moral views and values is deeply studied from a socio-philosophical perspective. The article also reveals the new meaning of moral categories and values in the digital environment, and scientifically substantiates the need to improve information culture and spiritual education of young people.*

Keywords*: Society, technology, worldview, complex ethical issues, transformation, information exchange, ethical values, information culture, ethics, globalization.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. XXI asr, ko‘pincha, “axborot asri” deb atalib, bu davrda axborot ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatish jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim omilga aylandi. Raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar hamda sun’iy intellekt texnologiyalari insonning kundalik faoliyati, muloqot shakllari va dunyoqarashini tubdan o‘zgartirmoqda. Axborot asrining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, u jamiyat oldiga murakkab axloqiy muammolarni ham qo‘ymoqda. Axborotning cheksizligi, tezkorligi va ochiqligi inson erkinligini kengaytirsa-da, axloqiy mas’uliyat masalasini yanada dolzarb etmoqda. Axborot muhitida shaxsiy hayot daxlsizligi, so‘z erkinligi va axloqiy me’yorlar o‘rtasidagi muvozanat masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli axborot asrida axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishi va transformatsiyasini falsafiy jihatdan tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

An’anaviy jamiyatda axloqiy qadriyatlar asosan oilaviy tarbiya, urf-odatlar, diniy va milliy an’analar orqali shakllangan bo‘lsa, bugungi kunda bu jarayonga raqamli muhit ham faol ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvi, virtual muloqot va anonimlik insonlarning axloqiy qarorlariga ta’sir etib, ayrim hollarda, mas’uliyatsizlik, befarqlik va axloqiy me’yorlarning buzilishiga olib kelmoqda. Bu holat axloqiy qadriyatlarning inqirozi emas, balki ularning yangi sharoitga moslashuvi sifatida baholanishi lozim. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi axborot asri sharoitida axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasini tahlil qilish, ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda zamonaviy jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta’minlash yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat. Shu bilan birga, axborot madaniyati va raqamli etikani shakllantirishning ahamiyati asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Axborot asrida axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi masalasi zamonaviy falsafa, axloqshunoslik va ijtimoiy fanlarda dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘rganilmoqda. Ilmiy manbalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari-ning rivojlanishi inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani ta’kidlanadi. Xususan, Manuel Castells tomonidan ilgari surilgan “tarmoqli jamiyat” konsepsiyasida axborot oqimlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylangani asoslab berilgan [1]. Mahalliy tadqiqotchilar ham axborotlashgan jamiyat sharoitida axloqiy qadriyatlarning o‘zgarishini turli jihatlarda tahlil qilganlar. Jumladan, axborot tizimlari va axborot etikasi masalalari ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi hamda yoshlar ma’naviyati bilan bog‘liq holda yoritilgan.

Shuningdek, ayrim ilmiy ishlarda raqamli muhitning inson dunyoqarashi va axloqiy qarashlariga ta’siri, axborot maydonida ma’naviy qadriyatlarni saqlash zarurati alohida ta’kidlangan. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda raqamli transformatsiya jarayonlari madaniyat, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy me’yorlarning yangicha shakllanishiga sabab bo‘layotgani qayd etiladi. Ayniqsa, axborot madaniyati, media savodxonlik va raqamli etika tushunchalari zamonaviy jamiyat rivojida muhim omil sifatida baholanmoqda. Shuningdek, axloqiy qadriyatlarning tarixiy va ma’naviy ildizlari diniy-falsafiy manbalarda ham keng yoritilgan bo‘lib, insonparvarlik, adolat, halollik va mas’uliyat kabi qadriyatlar jamiyat barqarorligining asosiy mezoni sifatida talqin qilinadi. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot asrida

axloqiy qadriyatlarning transformatsiyasi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni falsafiy, ijtimoiy va axloqiy jihatdan chuqur tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, tarixiy adabiyotlarni o‘rganish, sinergetik, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, dialektik, tarixiylik va mantiqiylikning birligi, taqqoslash kabi tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Axloqiy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy asosini tashkil etuvchi muhim ijtimoiy-me’yoriy hodisa hisoblanadi. Ular inson xulq-atvorini tartibga soluvchi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi me’yorlar majmuasidir. Axloqiy qadriyatlar orqali yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik, burch va mas’uliyat, vijdon va erkinlik kabi tushunchalar mazmunan belgilanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan axloqiy qadriyatlar insonning ongli faoliyati natijasida shakllanib, tarixiy va madaniy sharoitlarga bog‘liq holda rivojlanib boradi.

Har bir jamiyatda axloqiy qadriyatlar muayyan davrning ijtimoiy ehtiyojlari, ma’naviy ideallari va madaniy an’analari bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Shu sababli axloqiy qadriyatlar doimiy va o‘zgarmas hodisa emas, balki jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangilanib boruvchi ijtimoiy hodisadir. Axloqiy qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri – ularning umumiy va shaxsiy jihatlarni o‘zida mujassam etishidir. Bir tomondan, ular jamiyat tomonidan tan olingan umumiy me’yorlar sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, har bir insonning ichki e’tiqodi, vijdoni va axloqiy tanlovida o‘z ifodasini topadi.

Shu jihatdan, axloqiy qadriyatlar shaxsning ma’naviy kamolotida muhim o‘rin egallaydi. Axloqiy qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning umumiy va shaxsiy jihatlarni o‘zida mujassam etishidir. Bir tomondan, ular jamiyat tomonidan tan olingan umumiy me’yorlar sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, har bir insonning ichki e’tiqodi, vijdoni va axloqiy tanlovida o‘z ifodasini topadi. Shu jihatdan axloqiy qadriyatlar shaxsning ma’naviy kamolotida muhim o‘rin egallaydi. Zamonaviy jamiyatda esa axloqiy qadriyatlar yangi omillar ta’sirida qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Globallashuv, madaniyatlararo muloqot va axborot texnologiyalarining rivoji axloqiy me’yorlarning universallashuvi va bir vaqtning o‘zida individuallashuviga olib kelmoqda. Natijada an’anaviy axloqiy qadriyatlar zamonaviy hayot talablariga moslashib, yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Shu bois axloqiy qadriyatlar tushunchasini axborot asri sharoitida o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki aynan ushbu qadriyatlar insonning axborot muhitidagi xatti-harakati, qarorlari va ijtimoiy mas’uliyatini belgilab beradi.

Axborot asri insoniyatga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochgan bo‘lsa-da, shu bilan birga, axloqiy mas’uliyatni yangicha talqin qilishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, “raqamli etika” va “axborot madaniyati” tushunchalari zamonaviy jamiyatning ma’naviy ustuni sifatida yuzaga kelmoqda. Raqamli etika – bu shaxsning virtual muhitdagi harakatlarini tartibga soluvchi axloqiy me’yorlar majmuasidir; axborot madaniyati esa insonning axborotni qabul qilish, tahlil qilish va undan mas’uliyat bilan foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, raqamli etika insonning vijdoni va mas’uliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Axborot erkinligi imkoniyatini tan olish bilan birga, uning oqibatlari uchun javobgarlikni his qilish – bu zamonaviy axloqiy qadriyatning yangi shakli hisoblanadi.

Axborot madaniyati esa shaxsni faqat texnologiyalar bilan emas, balki ongli, tanqidiy va axloqiy qaror qabul qiladigan inson sifatida shakllantiradi. Axborot bilan to‘la dunyoda yashayotgan har bir shaxs, bir tomondan, tezkor va samarali bilim olish imkoniga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yolg‘on, manipulyatsiya va axloqiy befarqlik xavfi bilan yuzma-yuz keladi. Shu bois axborot madaniyati va raqamli etika bir-birini to‘ldiradigan tushunchalar sifatida shaxsning jamiyatdagi xatti-harakati uchun yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli etika va axborot madaniyatining shakllanishi zamonaviy jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omilidir. Bu jarayon shaxsni faqat texnik bilimga ega bo‘lgan foydalanuvchi sifatida emas, balki ongli va mas’uliyatli ijtimoiy subyekt sifatida rivojlantiradi. Shu ma’noda, raqamli etika va axborot madaniyati bu inson qalbini titratadigan, uni ichki axloqiy uyg‘onishiga undaydigan, jamiyatni ma’naviy kuch bilan boyitadigan ikki muhim asosdir.

Axborot asri insoniyatga cheksiz imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, u bilan birga yangi axloqiy muammolarni ham yuzaga keltirdi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotini tezlashtirdi, ammom shu bilan birga, vijdonsizlik, befarqlik, manipulyatsiya va axloqiy mas’uliyatning zaiflashishi kabi illatlar kuchaymoqda.

Axborot oqimi inson ongini boshqarishga qodir darajaga yetdi, lekin bu kuch har doim ijobiy ishlatilmaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda soxta xabarlar, yolg‘on ma’lumot tarqatish, kiberbulling va anonimlikning ya-

ratayotgan xavfi shuni ko‘rsatadiki, axborot erkinligi har doim erkinlik sifatida qolmaydi, u ba’zan axloqiy befarqlik va jamiyat uchun xavf manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa shuni anglatadiki, bizning texnologiyaga bo‘lgan ishonchimiz va tezkor axborot oqimiga bo‘lgan qaramligimiz axloqiy ongimizni susaytirishi mumkin.

Shuni tanqidiy tarzda aytish mumkinki, bugungi jamiyat, ko‘pincha, axborot erkinligi va texnologik taraqqiyot bilan o‘zini aldamoqda. Shaxsiy manfaat va qulaylik ko‘pincha umumiy axloqiy burchdan ustun qo‘yilmoqda. Bu esa, aslida, axloqiy qadriyatlar inqirozining boshlanishidir. Fikr erkinligi, axborot erkinligi va anonimlik imkoniyatlari jamiyatni yanada boyitishi mumkin edi, ammo, aksincha, ba’zan jamiyatni noto‘g‘ri yo‘nalishga burmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning falsafiy qarashlariga murojaat qiladigan bo‘lsak:

“Erkinlik–bu mas’uliyat bilan uyg‘unlashganda yuksak qadriyatga aylanadi. Erkinlikni mas’uliyatsizlikka aylantirish esa jamiyatni inqirozga olib boradi”. Shu nuqtayi nazardan, axborot asrida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimi faqat texnologik nazorat yoki qoidalar bilan emas, balki inson ongining ma’naviy uyg‘onishi va axloqiy mas’uliyatning oshirilishi orqali amalga oshadi.

Muammolarni hal qilishning falsafiy tamoyillari quyidagilar bilan ifodalanadi:

Birinchidan, axborotdan ongli va mas’uliyatli foydalanish. Har bir shaxs har qanday axborotni qabul qilishdan oldin uning haqiqat va axloqiy oqibatlarini tanqidiy baholashi kerak.

Ikkinchidan, axborot madaniyati va raqamli etikani rivojlantirish. Ta’lim tizimi va jamiyat sharoitida axborot madaniyati, raqamli etika va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish zarur.

Uchinchidan, shaxsiy manfaatdan ustun ijtimoiy manfaatni qo‘yish. Axborot asrida shaxsiy qulaylik va tezkor foyda, ko‘pincha, jamiyatning ma’naviy barqarorligiga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois umumiy axloqiy me’yorlarni ustun qo‘yish falsafiy zaruratdir.

To‘rtinchidan, tanqidiy tafakkur va ongni rivojlantirish. Axborot oqimining tezligi shuni talab qiladi - insonlar shoshmasdan, har bir xabarga tanqidiy yondashib, ma’naviy qadriyatlar bilan muvofiqligini tekshirishlari lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan holda, tanqidiy xulosada aytish mumkinki, axborot asri nafaqat imkoniyatlar davri, balki axloqiy sinov davri hamdir. Agar insonlar mas’uliyat va vijdon bilan yondashmasa, texnologik taraqqiyot jamiyatni notinchlik va axloqiy inqirozga yetaklashi mumkin. Shu bois axborot asrida axloqiy qadriyatlar va ma’naviyat texnologiyadan ham kuchliroq kuchdir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Umumlashtirib aytganimizda axborot asri bu nafaqat texnologik imkoniyatlar davri, balki inson ongining sinov maydoni, axloqiy qadriyatlarning o‘lchovini, vijdonning bardoshliligini sinovdan o‘tkazadigan zamondir. Har bir so‘nggi xabar, har bir raqamli muloqot inson qalbini sinovga solmoqda: u erkinlikmi yoki mas’uliyatsizlikmi, haqiqatmi yoki yolg‘onmi . Shu savollar bugungi jamiyatning o‘zi uchun yozilgan axloqiy va falsafiy mojarolardir.

Axborot oqimi insonni har tomonlama boyitishi mumkin, ammo shu oqim ichida yo‘lini yo‘qotgan ong qaror qabul qilishning og‘ir yukini his qiladi**.** Shunday ekan, axborot asri insoniyatga imkoniyatlar yaratadi, lekin u bilan birga axloqiy uyg‘onish va ichki kurashni ham talab qiladi. Shu kurashning natijasi shaxsiy ongning yuksalishi, jamiyatning ma’naviy barqarorligi va kelajak avlodning axloqiy qarorlari bilan belgilanadi.

Axborot asrida maqolada tahlil qilingan axloqiy qadriyatlar, raqamli etika va axborot madaniyati inson qalbining eng chuqur qatlamlarini titratadigan darajada muhimdir. Ular nafaqat hozirgi jamiyatning barqarorligi**,** balki insoniyatning axloqiy kelajagi uchun tayanch hisoblanadi. Shu bois har bir insonning ichki mas’uliyati, vijdoni va tanqidiy tafakkuri–axborot asrining haqiqiy me’mori sifatida qadrlanishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Berdimuratova A.K., Biyimbetov J.K. Informaciyalıq qáwipsizlik filosofiyası. Tashkent, “Metodist” nashriyoti, oqıw qollanba. 2025-jıl. 158-bet.

(2). Musayev M. Missionerlik va prozelitizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi. Tashkent, “Mumtoz so‘z” baspası, monografiya, 2021, 210-bet.

(3). G‘affarova G., Ibroximov F. Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet. Chirchiq, “Zebo Prints” baspası, Oqıw qollanba, 2024-jıl. 384-bet.

(4). G‘affarova G. Axborotlashgan jamiyat falsafasi. Toshkent, “Sarbon LLS” baspası, monografiya, 2024-jıl, 192-bet.

(5). Biyimbetov J.K. Xabar hám jámiyet xabar qáwipsizliginiń social-filosofiyalíq analizi. Tashkent, “Innovatsion-Ziyo” baspası, monografiya, 2024-jıl. 96-bet.